

**SAMANDAR VOHIDOV IJODIDA ADABIY TIMSOL VA
OBRAZLARNING RAMZIY MOHIYATI**

Saodat Narziyeva

SamDU, mustaqil izlanuvchi

saodathonimdilmurodovna@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada taniqli shoir Samandar Vohidov adabiy timsol va obrazlarning o'ziga xos-xususiyatlari, mavzular olamining turfa xilligi, shoir yaratgan timsollarning botiniy ma'nolari haqida fikrlar bildiriladi.

Kalit so'zlar: timsol, obraz, "imo", "ishora", "imlash", ramz, majoz, mohiyat, istiora, tashbeh, tamsil, oshiq, ma'shuqa

KIRISH. Ijodkor she'riyatida timsol va obrazlarning ramziy mohiyat kasb etishi uning she'riy matnda o'z va ko'chma ma'no ifodalay oladigan so'z va so'z birikmalarining, shu tarzda timsol va obrazlarning yarata olishida namoyon bo'ladi. Yuqorida kuzatilgani kabi Samandar Vohidov ham g'azalda qo'llagan tamsillaridagi baliq timsolida vatan qadrini biluvchi kishini, qurbaqada esa uni his qila olmaydigan kishilar timsolini yaratgani kabi bunday timsollarning yuzlab namunasini badiiy kashf etishga erishgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Buning uchun ko'chimning turlaridan bo'lgan "imo", "ishora", "imlash" ma'nolarini anglatuvchi ramz – simvolni, matn doirasida ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z yoki so'z birikmasi, obrazlar turini [1.1.B.245] vujudga keltirishni mahorat bilan uddasidan chiqa olgan. Ramziy ma'no ifodalovchi timsollar matnda o'z va ko'chma ma'nosini namoyon etishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Samandar Vohidovning tahlil jarayoniga tortilgan "Daryo" g'azalida daryo faqatgina o'z ma'nosida emas, balki o'zligini yo'qotgan inson ma'nosida qo'llangani bilan ham ramziy obraz darajasiga ko'tarilgan. Ayonlashadiki, ramz istiora, majoz singari ko'chim turlari asosida vujudga keladi. Yuqorida Samandar Vohidovning istiora,

tashbeh va tamsil badiiy san'atlari asosida ko'plab ramziy timsollar yaratganini ko'rib o'tdik. Endi uning g'azallari misolida Cho'lponning "Binafsha", Oybekning "Na'matak" she'rlarida kuzatilgani singari ramziy obrazlar yaratish mahorati xususida fikr yuritamiz.

Samandar Vohidovning "Daryo" [Saylanma II, 128], "Orzu guli" [Saylanma II, 110], "Kuz" [Saylanma II, 107], "Bu toshlarni" [Saylanma II, 120], "Sham" [Saylanma II, 133] singari o'nlab g'azallarida ramziy mohiyat kasb etuvchi obraz va timsollar mavjudligi kuzatiladi. Shoir bunday obrazlarni g'azal davomida vujudga keltirishda matladagi fikrni baytlar ketma-ketligida tadrijiy rivojlantirish uslubiga tayangani kuzatiladi.

MUHOKAMA Shoirning umr o'tkinchiligini o'ziga xos falsafiy mushohadakorlik bilan badiiy talqin etgan 6 baytli "Kuz" radifli g'azali aytilganlar nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir:

Tillo karvondin judo
Azmi safar aylaydi kuz.
Dard-u armonin yig'ib,
Ko'chmoqqa ko'ch boylaydi kuz.
Ko'z ochib ko'rgan uyidan
Noiloj kechgan ayol –
Singari ko'zyosh to'kib
Taqdirini qarg'aydi kuz.
Loy aro qotgan xazonmas
Qatra-qatra xotira,
Xotira uzra yurib,
Mungli navo aylaydi kuz.
Qo'yni-kunji liq to'la
Ne'matlaridan mosivo,
Qo'li bo'sh-u, ko'ngli bo'sh,
Xurjunga g'am joylaydi kuz.
Kecha yoz taxtin olib,

O'z shavkatidan mast-alast

Voh, bugun xor-u zabun

Qish yo'lini poylaydi kuz.

Ey, Samandar, ibrat olgin

Benajot kuz holidan

"Davlati dunyo vafo qilmas"

Debon yig'laydi kuz [2.8.,B.107].

Ma'lumki, kuz to'kin-sochinlik, barcha mevalarning pishib-yetilib, yig'ishtirib olinadigan, paxtalardan ulkan xirmonlar hosil qilinadigan fasl sanaladi. G'azalda kuzning nihoyalaniib, qishning boshlanish onlaridan darak beruvchi chog'i qalamga olingan. Shoir atayin ayni vaqtdagi o'zgarishlar misolida badiiy mushohada yuritadi. Bu davrda kuz tillo karvonlari – tillorang barglarning yerga to'kilib bitgandan so'ng safarga chiqqan kishi qiyofasida namoyon bo'ladi. Bundan kuzning savratmand kishiga o'xshashi, mol-u dunyosi osha-tosha bo'lgan keksa insonni xotirga keltirishi anglashiladi. Kuzning keksa yoshdagi kishi singari dard-u armonlari ham ko'p, u barchasini o'zi bilan olib ketishga shaylanadi. Kuz ham bu holga darrov tushib qolmagan. Uning ayni holati ko'z ochib ko'rgan uyidan ayrilayotgan ayolni eslatadi. U istamagan holatda ko'zyosh to'kib, taqdirdan zorlanadi.

Kuzda yog'ingarchilik ko'p bo'lib, atrof loyaro qotgan xazonlar bilan to'ladir. Bular shunchaki xazonmas, balki kuzning xotiralarini sifatida namoyon bo'ladi. Kuz xotiralar ustida yurib, mungli navo kuylaydi. Uning mungli navo kuylashi bu faslda shamolning o'zgacha mung hosil qilib esishini xotirga keltiradi. Kuz qo'yni-kunji liq to'la ne'matlardan mosivo – ajralib qolgan holda qo'li bo'sh-u ko'ngli bo'sh holatda xurjuniga faqatgina g'amlarini joylaydi. U kechagina yoz taxtini olib, shon-shavkatidan mas-alast holatda yurardi, bugun esa u xor-zabun holatda qish yo'lini poylaydi. G'azalda kuz o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etishi bilan kifoyalanmay, aslida savratmand bo'lgan kishiga xos jihatlarni ham o'zida mujassamlashtirgani kuzatiladi. Shoir uchun uning ayni ramziy obraz sifatida gavdalangani muhim sanaladi. Kuzning qish yo'lini poylashida keksa kishi

umrining tugab borishi nazarda tutiladi. Gʻazaldagi qish timsoli ana shunday ramziy mohiyat kasb etishi bilan shoir adabiy niyatini badiiy talqin qilishga xizmat qiladi. Gʻazal maqtasida shoirning benajot kuz holatidan ibrat olishga chaqirib, uning “davlat-u dunyo vafo qilmas” – deya yigʻlashiga sheʼrxon eʼtiborini qaratishi umrning oʻtkinchiligini shoirona badiiy talqin eta olganidan dalolat beradi. Buning uchun shoirga kuz ramziy obrazidan mahorat bilan foydalanganligi qoʻl keladi.

Samandar Vohidov gʻazaldagi ramziy obraz va timsollar vositasida ijtimoiy hayotdagi illatlarni ham badiiy fosh etishga erishadi. Shoirning yetti baytdan tarkib topgan “Bu toshlarni...” gʻazalida suv ramziy obraz darajasiga koʻtarilgani kuzatiladi. Undagi toshlar loqayd kishilar, toʻsiqlar timsoli sifatida namoyon boʻladi:

*Boshing toshga urarsan suv,
Surolmassan bu toshlarni,
Yorilgay manglaying, ammo
Yorolmassan bu toshlarni.
Onang – chashma kabi shaffof
Ishonchingga ishongaysan.
Bu toshlar toshligi rost-ku,
Yuvolmaysan bu toshlarni.
Sening umring – oqar lahza
Ularning umri tosh qotgan,
Oʻzing istar tomon sudrab
Borolmaysan bu toshlarni.
Ketar zoye bu tugʻyoning
Qahrdan qoʻzgʻama qaʻring,
Qorilgaysan oʻzing, loyga –
Qorolmassan bu toshlarni.
Ular toshqin yoʻlin toʻsmay
Yashasa toshligi qolmas,
Seni yoʻldan burar*

*Yo'ldan burolmassan bu toshlarni.
Men ham toshlar ila umrim
Talashlarda tamom etdim,
Va bidim: tig'idan tikka
Turolmassan bu toshlarni.
O'zingni qiynama, ey suv,
Men-u senga shudir qismat,
Umr ufqi sari chetlab
Yurolmassan bu toshlarni [3.8.,B., 120].*

G'azal matlasidagi suv obrazi o'ziga xos va insonga xos jihatlarni namoyon eta boshlaydi. Uning toshga urilishi, biroq u toshlarni o'rnidan siljita olaolmasligi g'oyatda tabiiy hol. Biroq suvning boshini toshga urishi natijasida istagiga erisha olmasligi, boz ustiga, manglayi yorilsa-da, toshlarni yoraolmasligida insonga xos xususiyatlar istiora badiiy san'ati asosida unga ko'chganligi seziladi. Shundan suv ramziy obrazi misolida ijtimoiy adolatsizliklarga uchragan, o'z istagini amalga oshirish yo'lida qancha harakat qilmasin, doimo toshdek qattiq to'siqlarga duch kelavergan kishi she'rxon ko'z oldida gavdalanadi. Suvning ezgulik yo'lida xizmat qiluvchi kishining ramziy obrazi ekanligi uning onasi chashma singari shaffof ishonchiga ishonishidan, biroq toshlar tosh bo'lgani uchun ularni yuvishga ojizlik qilganidan seziladi.

NATIJALAR. Shoir nazdida toshlar go'yoki ezgulik yo'lini to'sish borasida abadiy to'siqlarga aylanib qolgan. Suvning umri lahzadayoq oqib ketishi bilan nihoyalansa, ularning umri o'zi singari tosh qotgan, shu bois suv ularni o'zi istar tomonga sudrab borolmaydi. Ijodkor majvlanib oqayotgan zilol suv qarshisidagi toshlarni ezgulik yo'lini yillar, asrlar davomida to'sib kelgan to'siqlar sifatida ramziy ifoda etadi. Suv esa ko'nglida ezgu ishlarni amalga oshirish yo'liga qattiq kirishgan, qalbi shu niyati bilan tug'yon urayotgan navqiron insonning ramziy obrazidir. Lirik qahramon unga murojaatini davom ettirarkan, u orif bir inson sifatida namoyon bo'ladi. Suvga bu tug'yonlarining o'tib ketishini, qahrulanmasligini maslahat beradi. Bu to'siqlarni yengish yo'lida o'zi loyga

qorilishi mumkin-u, toshlarni eritishga qanchalik harakat qilmasin, ularni qoraolmasligi, ya'ni eritaolmasligini aytib o'tadi. Bunda loy timsolida suv ramzida badiiy ifodalangan ezgu niyatli kishi obrazining ham qarashlari o'zgarib, istagidan voz kechishi, u ham nafs istaklariga berilib, vaqti kelganida, nafsning tuzog'iga tushib qolishi mumkinligidan ogohlantiriladi. Biroq shiddat bilan boshini toshga urayotgan suv bu pandlarga ko'pincha e'tibor bermasligi tayin. Shunday bo'lsa-da, lirik qahramon suvga pand berishda davom etadi. Ularning toshqin yo'lini to'smay yashasa, toshligi qolmasligi haqidagi shoirning badiiy mulohazalaridan toshlar timsolida yaxshilikka doimo to'siq bo'lib kelgan, bir umr ezgulik yo'lida g'ov bo'lishni maqsad qilgan kishilar nazarda tutilgani aniqroq seziladi. Ular yaxshilik yo'lida bo'lgan kishiga ham to'siq bo'laverishlari bois uni o'z yo'lidan ozdirishga erisha oladilar, biroq suv anchalik urinmasin, toshlarning yo'lini ezgulik tomon bura olmaydi.

Shoir bu pandlarni badiiy ifodalab bo'lgach, yo'lida to'siq bo'luvchi toshlar bilan bog'liq o'z qismatidan so'z ochadi. Bu toshlar bilan butun umrini talashlarda o'tkazgani haqidagi shoirning badiiy mulohazalaridan suv obrazi misolida orzulari yo'lida qat'iylik bilan harakatlanuvchi kishi tushunilishi yanada aniq namoyon bo'ladi. Lirik qahramon umrini talashlarda o'tkazib, bir haqiqatni anglab yetganidan suvni ogohlantiradi. Bu haqiqat shundaki, ahdida sobit bo'lgan kishi ham, bu toshlarning, ya'ni to'siqlarning tig'ida tikka turishga, ya'ni hattoki jon talab qilishgacha olib boruvchi qarshiliklariga dosh bera olmaydi. To'siqlar qarshisida, albatta, ojizlik qiladi. G'azal maqtasida shoir suvga yana nasihat qilib, uni o'zini qiynamaslikka chaqiradi. Har ikkalasining qismati bir ekanligini suvga qilingan nasihatlariga dalil sifatida keltiradi. Shoir suvga qarata bu toshlarni umrining ufqi sari chetlab yurolmasligini uqtirarkan, ezgulik yo'lida to'siqlar doim mavjudligini, ezgu niyatli inson hayoti davomida doimo bularga duch kelib turishini eslatadi. G'azalda har bir inson o'z irodasidan ortiq ishlarni qilishga kuch topa olmasligi suv ramziy obrazi misolida talqin etiladi. Insonning umri hayotdagi jamiki to'siqlarni olib tashlashga yetmasligidan kelib chiqib, uni doimo bo'lar-bo'lmas taloshlar bilan ovora bo'lib, umr o'tkazmaslikka chaqiriladi. Shoirning

o'ziga xos orifona mazmun kasb etgan ushbu g'azalida suv ramziy obrazi nihoyatda muhim g'oyaviy-badiiy vazifaga xizmat qildirilgan bo'lib, u toshlar ramziy timsoli bilan qarama-qarshilik hosil qilib, ijodkorning hayot haqidagi falsafiy qarashlarini badiiy ifodalashga xizmat qilgani bilan ahamiyatli sanaladi.

Samandar Vohidovning 7 baytdan tarkib topgan "Sham" radifli g'azali ham ramziy ma'noni o'zida badiiy ifodalagan. Undagi sham obrazi barchaga ezgulik ulashgan insonning ramzi sifatida namoyon bo'ladi:

*Qatra qatra yosh to 'kib,
O'zni ado aylaydi sham.
Jism-u jonin yondirib
Yog'du ato aylaydi sham.
O'z o'tida qovrilishni
Kimdan o'rgandi ekan,
Kim uchun tortib jafo
Jonni fido aylaydi sham.
O't aro yonmoq azobi
O'tda yonganga ayon,
Na o'zin har yon urar,
Na bir sado aylaydi sham.
Tegrasin ravshan etib,
Qolgay o'zi zulmatga band,
O'zgalar deb o'zini
Zavqdan judo aylaydi sham.
Tunni yengib, tongga yetgach,
Orzuga yetgan kabi,
So'nggi bor bir lov etib,
Xushnud vido aylaydi sham.
Ey, yurak, shu mitti shamning
Umridan olgin saboq,
E'tiqod e'zozidan*

Nurli nido aylaydi sham.

Qolma hayron unga sen

O'z joniga qasd qildi deb,

O'tli qismat baxtidan

Shukri xudo aylaydi sham [4.8.,B.133].

Sham an'anaviy g'azalnavislik ma'shuqa ramzi sifatida tasvirlanib, parvona uning jununvor oshig'i sifatida badiiy talqin etiladi. Samandar Vohidov ushbu an'anani teran anglagan holda shamga yangicha ramziy ma'no mujassamlashtirishga harakat qiladi va iste'dodli shoir sifatida ushbu adabiy niyatini "Sham" radifli g'azalda shoirona badiiy talqinini yaratadi. Yuqorida tahlilga tortilgan g'azallardagi ramziy obrazlar singari sham ham sham ham o'zida o'ziga xos xususiyatlari bilan bir qatorda ramziy ma'noda ezgulik yo'lida o'zini fido qilgan insonga xos xususiyatlarni g'azalda namoyon etadi.

Shamning qatra-qatra yosh to'kishi yonib bo'lgan qismi ko'zyoshlari singari tubi tarafga oqib tusha boshlashini ko'z oldimizga jonlantiradi. Uning jismini yondirib, yog'du ato aylashi ham g'oyat tabiiy holat. Biroq uni jonining yonishi masalasida insonga xos xususiyat singdirilgan. Shu tarzda sham o'z ma'nosi yonida fidokor insonning ramziy ma'nosini ham mujassamlashtirgan. Keyingi baytda qo'llangan "O'tida qovrilishni kimdan o'rgandi ekan" ritorik so'rog'i misolida uning ramziy mohiyat kasb etishi yanada oydinlashib boradi. Boz ustiga, uning kim uchun jafo chekib, jonini fido qilishi ham noaniqligicha qoladi. Bunda shoir shamning yonish jarayonidan ijodiy foydalanib, unda boshqalar tashvishi uchun jon kuydirayotgan inson qiyofasini ramzan hosil qiladi. Bunday insonlar uchun boshqalarni tashvishi begona sanalmaydi. Ular bir ustoz sifatida yoki yonma-yon ishlab turgan hamkasb sifatida yoki vatandosh, millatdosh, qo'yingki, inson sifatida boshqalar dardini o'zlarinikidan ayri tushunmaydi. Ijodkor shamda ana shunday fazilatlarining ramziy ma'nolarini ko'ra oladi.

Shoir "O'tda yonmoq azobi o'tda yonganga ayon" deyish bilan ishqning otashin iztiroblarini ham, el-yurt manfaati yo'lida chekiladigan mashaqqatlarni ham nazarda tutadi. Sham misol o'rtanishni istagan inson bunday mashaqqatlarga

bardosh beribgina qolmay, ularda azoblanayotganini boshqalarga bildirmaydi ham. Insonga xos bo'lgan bunday yuksak fazilatni shoir o'z o'tida qovrilayotgan shamning o'zini har tarafga urmay, tik turishida, yonib tursa ham, biror bir sado chiqarmasligida ko'radi. O'zi zulmatga band bo'lib qolsa ham, tegrasini ravshan etib turadi, o'zgalar deb o'zini zavqdan judo aylaydi. Bu esa mashaqqatlarni o'ziga munosib ko'rib, boshqalarga baxtiyorlik ulashuvchi, buning uchun orzu-istaklaridan ham voz kechuvchi inson sham ramziy ma'noda badiiy ifodalaydi.

Shoir sham bilan bog'liq eng chiroyli adabiy manzarani g'azalni 5-baytida tasvirlashga erishadi. Unda tasvirlanishicha, shamning tunni yengib, tongga yetgani uning orzusiga yetgani kabi namoyon bo'lsa-da, shamning so'nggi bor bir lov etib, xushnud holatda vidolashishi kishini hayratda qoldiriladi. Bunday lov etishda tongga kelib, uning o'ti o'chirilishi nazarda tutiladi. Shunday paytda sham bir lov etadi-da, so'nib qoladi. Shoir bu adabiy manzarada butun umrini boshqalar uchun fido etgan odamning qilgan yaxshiliklaridan xushnud holatda bir oh chekib, jonini taslim etishini ramziylashtiradi. G'azalning 6-7-baytlarida esa lirik chekinish qilib, yurakka murojaat etgan holda undan ibrat olishga chaqiradi. Uning e'tiqodda sobit bo'lgani e'zozlanishiga bois ekanligi badiiy talqin qilinib, shamni o'z joniga qasd qilgan kishi ramzi sifatida emas, balki o'tli qismat qismat baxtiga shukr qilgan kishi sifatida talqin qilish to'g'ri deyish mumkinligi uqtiradi.

Samandar Vohidovning ramziy-majoziy mohiyat kasb etuvchi bu g'azallari uning yuksak iste'dodining bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Undagi lirik qahramon obrazi orif qiyofasida tasavvur uyg'otishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Lirik qahramonning ayni qiyofada namoyon bo'lishi shoirdan katta hayotiy tajribani, borliq va ijtimoiy hayotga nisbatan teran nigoh bilan nazar tashlashni talab etadi. Samandar Vohidov shunday fazilatlariga ega yuksak iste'dodli shoir ekanligini ramziy mohiyat kasb etuvchi obrazlar vositasida g'azallarida ham ko'rsatishga muvaffaq bo'ladi.

XULOSA. Shoir muayyan g'azallarda ramziy obraz va timsollar yaratishda ham mahoratli sanaladi. Ularda matladagi poetik fikr yoki adabiy manzara bir ramziy obraz atrofida shakllantirilib, bu poetik fikr yoki adabiy manzaraning

baytlar ketma-ketligida tadrijiy rivojlantirilgani kuzatiladi. Bunday gʻazallardagi lirik qahramon obrazi orif qiyofasida tasavvur uygʻotishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Lirik qahramonning ayni qiyofada namoyon boʻlishi shoirdan katta hayotiy tajribani, borliq va ijtimoiy hayotga nisbatan teran nigoh bilan nazar tashlashni talab etadi. Samandar Vohidov shunday fazilatlariga ega yuksak isteʼdodli shoir ekanligini ramziy mohiyat kasb etuvchi obrazlar vositasida gʻazallarida ham koʻrsatishga muvaffaq boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Б. 245.
2. Orzibekov R. Oʻzbek lirik she'riyati janrlari. – Toshkent: “Fan”, 2008. B. 232-297.
3. Sharq mumtoz poetikasi manbalari Hamidulla Boltaboyev talqinida.1-kitob. –Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006, 33-34-betlar.
4. Safarov O. Alisher Navoiy gʻazallariga bitilgan koʻrkam muxammaslar//. Kitobda: Samandar Vohidov. Bu bogʻda bahra boqiydur. “Buxoro”, 2011, 3-12-betlar.
5. Buxoriylar boʻstoni (Gʻazallar, sheʼrlar, muxammaslar, masnaviylar, qitʼalar, ruboiylar) S.Vohidov tarjimai. –Toshkent: “Yosh gvardiya”, 1998
6. Safarov O., Safarova H. Qozi Qurbonxon Fitrati Vardonzehiy// Kitobda: Qozi Qurbonxon Fitrati Vardonzehiy. Izlaringdan aylanay. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2001, B. 15.
7. S.S.Buxoriy. Azimov S. Hazrati Eshoni Imlo Buxoriy// Kitobda: Hazrati Eshoni Imlo Buxoriy Muhammad (s.a.v.) hidi kelgay, gʻazallar, ruboiylar. Tojik tilidan Samandar hoji Vohidov tarjimai. “Buxoro”, 2010. B. 10.
8. Vohidov S. Koʻnglimda olam surati (Sheʼrlar, gʻazallar, dostonlar, tarjimalar). Saylanma, II jild. “Buxoro”, 2004. B. 88
9. Vohidov E. Tanlangan asarlar. –Toshkent: “Sharq”, 2016. B. 67-129.